



**JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING ZO'RAVONLIK
JABRLANUVCHISI BO'LIB QOLISHINING OLDINI OLİSH
MASALALARI**

Avazova Gulzoda Usmanovna

*"Taskin" xotin-qizlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya
qilish markazi direktori*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini davlat siyosati darajasiga olib chiqqan holda kuchli himoya qilish hamda ularning konstitutsion huquqlarini mustahkamlash va shu bilan birga amaliyotda ularning poymol etilishini oldini olish kabi masalalarni, chet el qonunchiligining samarali faoliyatidan foydalanish asosida hamda Yangi O'zbekistonimizdagi sa'y-harakatalar zamirida ushbu faoliyatni qanday yo'sinda amalga oshirilayotgani va qanday o'zgarishlar bo'lsa yanada ko'zlangan maqsadimizga erishishimiz osonlashishini nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, javobgarlik, jazo, ozodlikdan mahrum etish, profilaktik choralar, himoya orderi, zo'ravonlik, kamsitish.

Bugungi rivojlanib borayotgan taraqqiy etgan yangi davr ostonasida ekanmiz, jamiyatimizdagi har bir islohot va o'zgarishlar, avvalo, yurtimiz ravnaqi va farovon kelajagi uchun amalga oshirilayotgani aslo sir emas. Jamiyatni yuksaltirish bu, albatta, oson ish emas. Bu nihoyatda katta kuch, yuksak salohiyat shu bilan birga ulkan matonatni talab etadi. Biz Yangi O'zbekistonni eng ulug' marralar sari olib borishimiz uchun shunday buyuk o'zgarishlarni qilishimiz lozimki, dunyo hamjamiyatida o'z natijamiz bilan alohida ajralib turishimiz darkor. Har bir davlatda tarixdan ham, hozirgi davrdan ham nazar soladigan bo'lsak, jamiyatni yuksalishiga to'sqinlik qiladigan omillar hamisha bo'ladi. Bu omillar aynan nimada nazarda tashlanadi deganda shunday javob berishimiz mumkinki, bunday nozik omillar, albatta, jamiyatning zaif qatlamida uchraydi. Biz bu qatlamga kimlarni kiritishimiz



mumkin,yoshi ulug‘ nuroniylar, yosh, voyaga yetmaganlar, ayollarni ko‘rsatishimi mumkin. Shuningdek, biz alohida yoritmoqchi bo‘lgan masalalardan bir bu – ayollar bilan bog‘liq bo‘lib, yaqin davr ichida, albatta, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda birdek o‘z ahamiyatiga ega pog‘onalargacha erisha olishi uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilib berildi. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirishning nihoyatda muhim bir tamoyilidir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdag‘i kansitishlarni yo‘q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazardan muhimdir, balki boshqa sohalarda ham rivojlanish jarayoniga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir.[1] Jumladan, sohamiz doirasidan olib aytadigan bo‘lsak, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini to‘laqonli ta’minalash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi Qaroriga asosan, Respublika, viloyat va tuman (shahar) ichki ishlar organlari tizimida xotinqizlar bilan ishslash masalalari bo‘yicha inspektor lavozimlari joriy etilganligi, ularga bevosita xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlarni mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda qiyin ahvolga tushib qolgan har bir xotin-qizga yordam ko‘rsatishni tashkil etish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilganini ko‘rsatishimiz mumkin. Shu bilan birga 2019-yil 2-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining “Xotinqizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son hamda “Xotinqizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonunlari qabul qilindi. “Jamoat xavfsizligini ta’minalash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo‘g‘inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo‘lga qo‘yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minalash maqsadida bugungi kunda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda”[2]. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda



huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ hamda muassasalar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etgan, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj, og‘ir ijtimoiy ahvolda qolgan, shu jumladan, tazyiq va zo‘rovonlikka duch kelgan, yakka yolg‘iz, qarovchisi yo‘q, muqaddam sudlangan ayollarni aniqlash, ular bilan yakka tartibdagi profilaktik tadbirlarni o‘tkazish va shu orqali sog‘lom turmush tarziga qaytarish nihoyatda dolzarb masalaga aylandi. Buyuk faylasuf olim Sharl Lui Monteskyo aytganidek: “Aqli qonun chiqaruvchi huquqbuzarlik uchun jazo haqida emas, balki huquqbuzarliklarning oldini olish uchun qayg‘uradi. U huquqbuzarlik uchun jazolash emas, balki axloqni yaxshilash uchun harakat qiladi”.[3] Shuni ham aytishimiz mumkinki, ayollar o‘rtasida huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish masalasi doimiy e’tiborimiz markazida turishi maqsadga muvofiq. Birinchi navbatda, ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxslar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitasiya qilish bo‘yicha tizimli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Ikkinchidan, ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, ularni muttasil qiyash yoki ularning shaxsini tahqirlovchi harakatlar sodir etish, ularning huquq va erkinliklarini amalda erkin ifodalashiga to‘sinqilik qilish kabi huquqbuzarliklarning ham oldini olishda alohda harakatlar tashkil etilmoqda, shu bilan birga ushbu harakatlarga nisbatan javobgarlikni kuchaytirish bu kabi g‘ayriqonuniy harakatlar kamiyishiga yanada yordam berar edi. Biz, albatta chet el qonunchiligi amaliyotining samarador va ayni bizning mintalitetimiz hamda qonunchiligimizga to‘g‘ri keladigan jihatlaridan o‘zimiz uchun andoza olsak foydadan yiroq bo‘lmash edi. Xususan ayollarga nisbatan turli huquqbuzarliklar sodir etish, ularga ruhiy, ma’naviy hamda jismoniy ziyon yetkazishning oldini olish va huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida Rossiya Federatsiyasi jinoyat huquqiga murojaat qiladigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining “Uch yoshga to‘lman bolasi bor homilador ayol yoki ayol xodimalarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etish yoki asossiz ravishda ishdan bo‘shatish” deb nomlangan 145-moddasida: “Ishga qabul qilishni asossiz rad etish yoki ayolning homiladorligi sababli asossiz ravishda ishdan bo‘shatilishi, shuningdek, uch yoshga to‘lman



bolalari bo‘lgan ayolning ishidan asossiz ravishda ishdan bo‘shatilishi, bu sabablarga ko‘ra – ikki yuz ming rubl jarima yoki o‘n sakkiz oygacha bo‘lgan muddatga ish haqi yoki boshqa daromad yoxud uch yuz oltmisht soatgacha bo‘lgan muddatga majburiy ishlar bilan jazolanadi” kabi norma keltirilgan bo‘lib, bundan ko‘rinib turibdiki, ayollarni huquqiy manfaatlari hamda erkinliklari qat’iy qonun normalari asosida, alohida Jinoyat kodeksi bilan himoyalangan.[4] Ayollarning erkinliklari borasida to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning hayoti, shaxsiy erkinliklari, ularning konstitutsion huquqi bo‘lib, ularni har tomonlama tazyiqlardan himoyalash asosiy ahamiyat ega. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining jinoyat kodeksining 236-moddasida: “Ayolga tahdid va zo‘ravonlik bilan qilingan zo‘rlash – 3 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 14 yoshga yetmagan qizga nisbatan buzilgan axloqsiz xatti-harakatlar zo‘rlash deb hisoblanadi va nazarda tutilgan eng qattiq jazo bilan jazolanadi. Agar ayolga nisbatan zo‘rlash yoki qizga nisbatan axloqsiz xatti-harakatlar sodir etilsa, jazo 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish, muddatsiz ozodlikdan mahrum etish yoki o‘lim jazosi bilan belgilanadi:

- 1) ayolni zo‘rlash yoki qizga nisbatan zo‘ravonlik bilan qilingan zo‘ravonlik harakati;
- 2) ayollarga nisbatan takroriy zo‘rlash yoki qizlarga nisbatan buzuq harakatlar;
- 3) jamoat joyida ayolni ommaviy zo‘rlash;
- 4) 2 yoki undan ko‘p sonli guruh tomonidan ayolning jinsiy zo‘rashi;
- 5) jabrlanuvchiga jiddiy shikast etkazish, o‘limga yoki boshqa jiddiy oqibatlarga olib keladigan tajovuz – 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish, muddatsiz ozodlikdan mahrum etish yoki o‘lim jazosi bilan belgilanadi.”, va shuningdek 237-moddasida, “Ayolni o‘z qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishga majbur qilish va unga zo‘ravonlik, tahdid yoki boshqa yo‘llar bilan haqorat qilish usullar – 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki qisqa muddatli hibsga olish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning birinchi qismida ommaviy yoki jamoat joylarida sodir etilgan jinoyat 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan



jazolanadi. Bolani haqorat qilish ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan eng og'ir jazo bilan jazolanadi”[5] deya belgilangan bo‘lib, ko‘rib turganimizdek xotin-qizlarga nisbatan qilingan huquqbazarlik harakatlariga har ikkala davlatda ham eng og'ir jazo chorasi qo‘llanilgan. Bu, albatta tenglikni buzish emas, balki gender tenglikni saqlash, ayollarni jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, huquqlari va shaxsiyati oyoqosti bo‘lishining oldini olishda qilingan sa’y-harakatlar hisoblanadi. Bizning davlatimiz ham sekin asta shu darajaga ko‘tarilmoqda ekan, bizning qonunchiligidan ham ayollarga qilingan huquqbuarlklarga qarshi javobgarlik choralarini kuchaytirish va buni amaliyotda sodir etilgan jinoyatlar doirasida qo‘llash, albatta, o‘z samarasini beradi deb aytishimiz mumkin.

Reproduktiv salomatlikni saqlash bo‘yicha Sharqiy Yevropa institutining (ShERSI), Ruminiya (Bosh koordinator: Ionela Xorga) mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan materiallarga asoslangan va O‘zbekiston Respublikasining milliy kontekstiga moslashtirilgan «Gender zo‘ravonlik bo‘yicha ichki ishlar organlari tomonidan huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etishning standart operatsion ish tartiblari» qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta’minalash masalalari bo‘yicha Komissiyasining 2020 yil, 16 iyul 4-sonli bayoni (17–18-bandlar) bilan amaliyotga tadbiq qilish uchun tasdiqlangan. Ushbu qo‘llanmada huquqni muhofaza qilish xizmatlarini taqdim etuvchi vositachi sifatida ichki ishlar organlari ko‘pincha tizimning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lganligi sababli, ularning jabrlanuvchi xotin-qizlarning murojaatlariga bo‘lgan javobi, jabrlanuvchi xotin-qizlar bunday xizmatdan foydalanishni davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilishlarini hisobga olgan holda, ko‘pincha keng qamrovli xizmatlarni taqdim etishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ba’zi hollarda esa, ichki ishlar bo‘limlari xotin-qizlarning bunday qaror qabul qilishi kerak bo‘lgan vaziyatning oldini olishlari mumkin.

2024 yilning aprel-oktabr oylari davomida YevroOsiyo fondining moliyaviy ko‘magida, loyihaga ekpertlarni jalb qilgan holda “Xotin-qizlar huquqlari va SOT (Standart Operatsion ish Tartiblari) qo‘llanmasi” loyihasi amalga oshirildi.



Mazkur loyiha doirasida joriy yilning aprel-may oylari davomida loyihaga jalb qilingan Surxondaryo, Jizzax, Farg'ona viloyatlari ekspertlari tomonidan hududlarning har biridan ellik nafardan jami 200 nafar zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar o'rtasida tadqiqot o'tkazildi hamda natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra "Gender zo'ravonlik jabrlanuvchilari murojaat qilib, yordam olishda" IIB (*mahalla fuqarolar yig'ini*) profilaktika inspektorlariga **murojaat etishni 50 %ni ayollar tashkil etgan.**

Ma'lumki, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish, ularni qo'llab quvvatlash, huquqiy, ma'naviy yordam berish jamiyatda o'z o'rmini topishga ko'maklashish har bir insonning oldida turgan ustuvor vazifadir. Hozirda, zo'ravonlikka uchragan ayollar bilan suhbatlar olib borish va amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha tartiblar, tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Qonun hujjatlari va tezkor protokollar mavjudligiga qaramay, amalda gender steriotiplari ta'sirida zo'ravonlikka uchragan ayollarning huquqlariga e'tiborsizlik va hattoki sud jarayonlarida qonunga amal qilinmay, gender steriotiplari ta'sirida xotin - qizlarni huquqlari poymol qilinayotgan holatlar uchramoqda. Oqibatida tazyiq va zo'rovonlikka uchragan xotin-qizlar o'rtasida ikkilamchi qurbanlikning ortishi va ularning ahvolini yanada yomonlashishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu masalalar doirasida turli chora-tadbirlar hamda huquqiy ta'sir etish usullari ishlab chiqilmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, "Himoya orderi" aynan, huquqi poymol bo'layotgan, oilasi yoki yon atrofdagilarning tazyiqiga uchrayotgan, jismonan va ma'nан himoyaga muhtoj xotin-qizlar uchun berilib, bu order xotin-qizlarni huquqbazarliklardan himoya qilish, ularning erkinlikarini, qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda katta qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.[6] Bugungi kunda hattoki ushbu masala, ya'ni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rmini mustahkamlash umumjahon siyosatining asosiy tarmoqlaridan biriga aylangani ham sir emas. Xususan, Gender tengligini ta'minlash Barqaror taraqqiyot 2030 dasturining 17 maqsadidan biri bo'lib, 2015-yil 25-sentabr kuni barcha mamlakatlarning yetakchilari 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan barqaror taraqqiyot dasturini qabul qilib, talablardan aniq harakatlarga o'tish



maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu Yorkdagi bosh qarorgohida yig'ilish o'tkazilganida ham bu masalaga alohida yondashgan.[7] Guvohi bo'lganimizdek, butun dunyo hamjamiyatida bu masala dolzarb ekanligi bilan ajralib turadi. Barqaror siyosatni ta'minlash borasida jamiyatning alohida himoyasiga hamda qo'llab-quvvatlanishiga muhtoj qatlam, ya'ni xotin-qizlar masalasi ayni shuning uchun umumjahon siyosati va sarmoyalari yo'naliшlarini belgilab beruvchi dasturda alohida vazifa etib belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston UNDP sayti// Gender tenglikni ta'minlab, barcha ayol va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish <https://www.undp.org/uz/content/uzbekistan/uz/home/post-2015> .
2. Tursunov A.S., Fazilov I.Yu., Xo'jaqulov S.B. Huquqbazarliklar profilaktikasi: Darslik (Ichki ishlar vazirligi akademik litseylarining Ijtimoiy gumanitar fanlar-4 ta'lim yo'naliши uchun) / Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 361 b.
3. Жалилов, Н. 2022. Ҳуқуқбузарликларнинг якка тартибдаги профилактикаси институтининг назарий асослари. Жамият ва инновациялар . 3, 4/S (May 2022), 397–403. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp397-403>
4. "Ugolovnyu kodeks Rossiyskoy Federatsii" ot 13.06.1996 N 63-FZ (red. ot 01.07.2021) (s izm. i dop., vstup. v silu s 22.08.2021)
5. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики // 2016/01/11.
6. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi O'RQ-561-son Qonuni .
7. Tashqi ishlar vazirligining "Xalqaro munosabatlar" jurnali №4 (62) (2015).
8. Жалилов, Н. 2022. Профилактика инспектори маъмурий иш юритиш фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари. Жамият ва инновациялар. 2, 12/S (Feb. 2022), 348–352. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2- iss12/S-pp348-352>.
9. Karaketova, D. Y. (2022, May). SOME ISSUES OF PREVENTION OF VIOLENCE AGAINST WOMEN. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 4).